



Akademik xonandalikda ovoz apparati faoliyatining nazariy asoslari va vokal texnikaning shakllanishi

**Mamarahimova Sarvinozxon
Shuhratjon qizi**

**Qo'qon Davlat Universiteti
2-bosqich Vokal san'ati Akademik
xonandalik yo'nalishi magistranti**

Annotatsiya

Ushbu maqolada xonandalik san'atining tarixiy rivojlanishi, vokal ijrochilikning nazariy asoslari hamda ovoz hosil qilish mexanizmi tahlil qilinadi. Shuningdek, nafas olish texnikasi, artikulyatsiya, diksiya va vokal mashqlar orqali xonandalik mahoratini shakllantirish masalalari yoritilgan. Maqolada xonanda ovozining sifat ko'rsatkichlari, individual xususiyatlari va ularni rivojlantirish metodikasi ham ilmiy asosda ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari, ovoz gigiyenasi va pedagogik yondashuvlarning ahamiyati ham ochib berilgan.

Kalit so'zlar:

xonandalik, vokal ijrochilik, ovoz apparati, nafas olish, artikulyatsiya, diksiya, rezonator, tembr, vokal mashqlar, ovoz gigiyenasi

Аннотация: В данной статье рассматриваются историческое развитие вокального искусства, теоретические основы вокального исполнительства и механизм образования голоса. Освещаются вопросы техники дыхания, артикуляции, дикции и формирования вокального мастерства с помощью специальных упражнений. Также анализируются качественные характеристики голоса певца, его индивидуальные особенности и методы их развития. Особое внимание уделяется гигиене голоса и педагогическим подходам в обучении вокалу.

Ключевые слова: вокальное искусство, голосовой аппарат, дыхание, артикуляция, дикция, резонатор, тембр, вокальные упражнения, гигиена голоса, исполнительство

Annotation: This article examines the historical development of vocal art, the theoretical foundations of vocal performance, and the mechanism of voice production. It also highlights breathing techniques, articulation, diction, and methods of developing vocal skills through systematic exercises. The study analyzes the qualitative characteristics of the singer's voice, individual features, and methods for their improvement. Additionally, special attention is given to voice hygiene and pedagogical approaches in vocal training.

Keywords: vocal art, voice production, breathing technique, articulation, diction, resonance, timbre, vocal training, voice hygiene, performance

Xonandalik san'ati insoniyat tarixi bilan chambarchas bog'liq. Qadimgi davrlarda ovoz odamlar o'rtasida muloqot vositasi bo'libgina qolmay, balki turli marosimlar, bayramlar va diniy tadbirlarda muhim ahamiyat kasb etgan. Arxeologik topilmalar va tarixiy manbalar ko'rsatishicha, insoniyat tarixining ilk bosqichlaridayoq odamlar o'z ovozlari bilan turli ohanglar, kuylar yaratish uchun foydalanganlar. Qadimgi Misr, Mesopotamiya, Xitoy va Hindistonda xonandalik san'ati nihoyatda rivojlangan bo'lib, bu davlatlarda professional xonandalar maxsus o'qitilgan va jamiyatda alohida hurmatga sazovor bo'lishgan. Masalan, qadimgi Misr ierogliflarida xonandalar tasvirlangan bo'lib, ular ko'pincha fir'avnlarning va zodiyatlar saroylarida xizmat qilganlar. O'rta asrlarda Yevropa va Osiyo mamlakatlarida xonandalik san'ati yanada rivojlandi. Xristianlik dini tarqalishi bilan cherkov xorlari muhim ahamiyat kasb etdi. Gregorian chorallar, vizantiya cherkov qo'shiqlari va boshqa diniy musiqalar xonandalik san'atining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Sharq mamlakatlarida, xususan Markaziy Osiyo, Eron va Arabiston yarim orolida maqom, mug'om, dastgoh kabi murakkab musiqa tizimlarida xonandalik alohida o'rin egallagan. Bu davrda xonandaning mahorati uning ovoz diapazonigagina emas, balki murakkab pardalarni to'g'ri ijro eta olishiga ham bog'liq bo'lgan. Zamonaviy xonandalik san'ati Uyg'onish davridan boshlab, Yevropada opera janri paydo bo'lishi bilan xonandalik san'ati yangi bosqichga ko'tarildi. XVII-XVIII asrlarda Italiyada bel canto (go'zal kuylash) uslubi shakllandi, bu esa zamonaviy akademik xonandalik maktabiga asos soldi. XIX-XX asrlarda texnik vositalarning paydo bo'lishi - mikrofon, ovoz yozish qurilmalari xonandalik san'atida yangi imkoniyatlarni ochib berdi va turli janrlarning shakllanishiga olib keldi.¹ Vokal ijrochiligida kuylashni o'rgatishdagi asosiy vazifa — ovoz va eshitishni, shuningdek, badiiy didni rivojlantirishdan iboratdir. Tovush ustida ishlash jarayonida xonandalik postanovkasi, nafas tayanchi ko'nikmalari shakllantiriladi, shu bilan birga nafasni to'g'ri taqsimlash hamda xonandalik pozitsiyasini to'g'ri belgilash jarayonlari o'zlashtiriladi. Bu esa ovozning jarangdorligi, yig'iq va silliq kabi sifatlarni yuzaga chiqarishda muhim omil hisoblanadi.

Vokal mashg'ulotlari boshida odatda ovoz apparatini "qizdiruvchi", vokal ko'nikmalarni hosil qiluvchi va rivojlantiruvchi mashqlar bajariladi. Cholg'u jo'rliksiz yakkaxon kuylash o'quv jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lib, bunday ijro davomida xonandalik tovushining tembr, dinamikasi va balandligi haqidagi eshitish tasavvurlari rivojlanadi. Vokal ijrochiligiga o'rgatish ko'p jihatdan xonandalikda ovoz hosil qilish hamda amaliy kasbiy malakalarni takomillashtirishga qaratilgan bo'ladi.

Kuylashni o'rgatish jarayonida ovoz apparati a'zolari ijrochilik talablariga mos tarzda moslashtiriladi. Kuylovchilik tovushi va uning jarang xususiyatlari haqidagi tasavvurlar musiqiy mazmun va ifodalilik bilan belgilanib, ovoz apparati faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Vokal jarangning ifodaliligi va tovush sifati vokal-texnik ko'nikmalar — nafasni boshqarish, rezonatorlar faoliyati hamda talaffuz apparatini egallash bilan uzviy bog'liqdir. Biroq texnik ko'nikmalarni shakllantirish jarayoni emotsional yo'nalish va badiiy ifodalilik bilan uyg'un holda olib borilishi zarur.

¹ Nurullayev, B. G. (2025). Xonandalik uslubiyoti asoslari. *Science and Education*, 6(4), 88-95.

Vokal ijrochiligida xonanda ovozig qo'yiladigan kasbiy talablar — bu jarangdorlik va yoqimli tovush hosil qilishdir. Ta'limning boshlang'ich bosqichida esa vokal-texnik ishlar ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ovozning asosiy boshqaruvchisi sifatida eshitish qobiliyati muhim o'rin tutadi. Kuylovchilik tovushining turli xususiyatlarini eshita bilish va ularni farqlash, ya'ni ovoz apparati faoliyatiga qarab aniqlay olish vokal eshitish deb ataladi.²

Ijro badiiy jihatdan yuqori darajada bo'lishi uchun unda xonandaning e'tibori, hissiyoti, anglash qobiliyati, tafakkuri, tasavvuri hamda emotsional holati, eng muhimi esa ovozning ruhiy kechinmalari faol namoyon bo'lishi zarur. Bundan tashqari, uning individual ovoz sifati, tembrining jozibadorligi va boyligi, pardalarning (intonatsiyaning) aniqligi, musiqiy salohiyati va iste'dodi, sho'xligi va jo'shqinligi, dunyoqarashi, erkin fikrlashi, xarakteri hamda mental xususiyatlari o'z ifodasini topishi lozim.

Xonandalikni o'rganishga qiziqish bildirgan nomzodning to'g'ri tanlanganligiga ustozning ishonchi shakllanishi uchun bolaning ovozi va musiqiy qobiliyatlari, jismoniy rivojlanish darajasi hamda xonandalikka mos ravishda yo'naltirilganligi qayta-qayta tekshirilishi, u bilan suhbatlar olib borilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. O'qituvchi shogirdining xonandalik yo'lini tanlaganiga va bu yo'nalishda muvaffaqiyatli davom eta olishiga amin bo'lganidan so'nggina unga vokal sir-asrorlarini o'rgatishni boshlaydi. Dastlabki mashg'ulotlar esa odatda talabaning qiziqishini oshirish maqsadida unga manzur bo'lgan, ta'sirchan va yorqin asarlarni ijro etib berish orqali yo'lga qo'yiladi.³

Ovoz hosil qilish mexanizmi: Xonandalikni egallash uchun ovoz apparatining tuzilishi va faoliyatini anglash muhimdir. Inson ovozi uch asosiy tizim orqali yuzaga keladi: nafas olish apparati (o'pka va diafragma), ovoz hosil qiluvchi qism (hiqildoq va ovoz paychalari) hamda rezonator va artikulyatsiya tizimi (og'iz, burun, tomoq bo'shliqlari). Ushbu qismlarning uyg'un ishlashi natijasida sifatli va professional ovoz shakllanadi, tovush esa rezonatorlar orqali kuchayib, boyiydi.

Ovozlar ayollar (soprano, mezzosoprano, alt) va erkaklar (tenor, bariton, bas) turlariga bo'linadi. Har bir tur o'z diapazoni, tembri va imkoniyatlariga ega bo'lib, ularni to'g'ri aniqlash xonandaning tabiiy imkoniyatlarini to'liq namoyon etishga yordam beradi.

Xonandalik mahoratining asoslari To'g'ri nafas olish vokal san'atining poydevori hisoblanadi. Qorin-diafragmal, ko'krak va aralash nafas turlari mavjud bo'lib, aralash nafas eng samarali usul sifatida qaraladi. Nafasni to'g'ri taqsimlash, uzun frazalarni bir nafasda ijro etish va gavdani to'g'ri tutish muntazam mashqlar orqali shakllanadi.

Tovush hosil qilish (ataka) ovoz paychalarining tebranish boshlanish jarayoni bo'lib, yumshoq, qattiq va nafasli turlarga ega. Uslubga qarab turli ataka qo'llanadi. Artikulyatsiya nutq organlarining aniq harakati bo'lsa, diksiya so'zlarning ravon va tushunarli talaffuzini anglatadi.

² Saidumarov, I. Y. (2023). Vokal Ijrochiligida Ovoz Postanovkasi Va Nafas Olishning O 'Ziga Xos Jihatlar. *Oriental Art And Culture*, 4(5), 85-88.

³ Sayidov, T. Y. D. (2023). Ovoz Imkoniyatiga Moslab Asar Tanlash Va Ovoz Tarbiyalashning O 'Ziga Xos Jihatlar. *Oriental Art And Culture*, 4(3), 411-416.

Rivojlantirish metodikasi Doimiy vokal mashqlar ovozni rivojlantirishda muhim: ular ovozni qizdirish, diapazonni kengaytirish va sifatni yaxshilashga xizmat qiladi. Repertuar tanlashda ovoz turi, yosh, tajriba va asarning murakkabligi inobatga olinadi. Asar ustida ishlash matnni tahlil qilishdan boshlab, musiqiy va badiiy jihatlarni shakllantirishgacha bo‘lgan bosqichlarni o‘z ichiga oladi.

Ovoz gigiyenasi Xonanda ovozini asrashi zarur: ortiqcha zo‘riqmaslik, zararli omillardan himoyalash, to‘g‘ri ovqatlanish, yetarli dam olish va stressdan qochish muhimdir.

Klassik xonandalik Akademik vokal qadimiy va mukammal yo‘nalish bo‘lib, unda kuchli, jarangdor, keng diapazonli va texnik jihatdan puxta ovoz talab etiladi. Xonanda mikrofonlarsiz ham tinglovchiga ta‘sir eta olishi kerak.⁴

Ovozning sifatlarini tarbiyalashda kerakli tovush yoki mushak texnikasini ko‘rsatish va talaba tomonidan nota matnini nusxalash katta rol o‘ynaydi. Buning uchun o‘qituvchining o‘zi ovozni yaxshi bilishi, talaba esa taqlid qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Mushak texnikasini namoyish qilish qo‘shiq kuylashda vokal apparati ishini chuqur bilishga asoslangan bo‘lishi kerak, chunki u vokal apparatining ma‘lum qismlarining haqiqiy holatiga ta‘sir qiladi. Barcha hollarda talabaning individualligini hisobga olish kerak va pedagogik usullarning to‘g‘riligi mezonini uning ovozi bo‘lishi kerak. Og‘zaki tushuntirishlar ovoz shakllanishi haqida to‘g‘ri g‘oyalarni rivojlantirishning eng kuchli omilidir. O‘qituvchi uning o‘quvchisi nimaga erishmoqchi ekanligini ko‘rsatishi va aytib bera olishi, ko‘p sonli mushak texnikasini egallashi va Darslar uchun mos musiqiy materialni bilish va tanlay olish kerak. Vokal darslarining samaradorligi birinchi navbatda o‘qituvchi shaxsining xususiyatlariga, uning kasbiy bilimiga, pedagogik mahoratiga bog‘liq.⁵

Xulosa qilib aytganda, xonandalik san‘ati murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u nafaqat tabiiy iste‘dod, balki ilmiy asoslangan vokal texnika, muntazam mashg‘ulot va to‘g‘ri pedagogik yondashuvni talab etadi. Ovoz hosil qilish mexanizmi, nafasni boshqarish, artikulyatsiya va eshitish qobiliyatining uyg‘un rivojlanishi xonandaning professional darajaga erishishida muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, ovoz gigiyenasiga rioya qilish va individual xususiyatlarni hisobga olish xonandalik mahoratini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. Nurullayev, B. G. (2025). Xonandalik uslubiyoti asoslari. *Science And Education*, 6(4), 88-95.
2. Saidumarov, I. Y. (2023). Vokal ijrochiligida ovoz postanovkasi va nafas olishning o‘ziga xos jihatlari. *Oriental Art And Culture*, 4(5), 85-88.
3. Sayidov, T. Y. D. (2023). Ovoz imkoniyatiga moslab asar tanlash va ovoz tarbiyalashning o‘ziga xos jihatlari. *Oriental Art And Culture*, 4(3), 411-416.
4. Ashurova, S. S. (2024). Vokal ijrochiligida ovoz xususiyatlari, ta‘limda zamonaviy yondashuvlar. *Science And Education*, 5(11), 164-169.

⁴ Ashurova, S. S. (2024). Vokal ijrochiligida ovoz xususiyatlari, ta‘limda zamonaviy yondashuvlar. *Science and Education*, 5(11), 164-169.

⁵ Ashurova, S. S. (2024). Vokal ijrochiligida ovoz xususiyatlari, ta‘limda zamonaviy yondashuvlar. *Science and Education*, 5(11), 164-169.